



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
Dilsora Shodmonova	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
Истамова Нигора Азимжановна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
Lola Mannobova	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
Alimova Gulrux Farhod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
Axtamova Mohinur O'tkir qizi	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
Xidirov Faxriddin Fozilovich	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
Рахмонова Нилуфар Уткир кизи	



TA'LIM TOJIK TILIDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLARDA MORFOLOGIYA O'QITISH MUAMMOSI

Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0001-6197-7830

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili morfologiyasini o'qitishning ahamiyati hamda ikki tilli muhitda o'quvchilarning grammatikani o'rganish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi. Morfologiyani o'qitishda kommunikativ grammatika yondashuvining ahamiyati yoritilib, tojik tilli o'quvchilarga grammatik bilimlarni ularning nutqiy ko'nikmalari asosida o'rgatishning samarali jihatlari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, maqolada morfologiya bo'limini kommunikativ grammatika asosida o'qitish o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'zga tilli o'quvchilar, ikkinchi til, tojik maktablari, o'zbek tili, morfologiya, kommunikativ grammatika.

Abstract: This article analyzes the importance of teaching Uzbek morphology in schools where instruction is conducted in the Tajik language, as well as the problems arising in the process of learning grammar in a bilingual environment. The significance of the communicative grammar approach to teaching morphology is highlighted, and the effective aspects of teaching grammatical knowledge to Tajik-speaking students based on their speech skills are demonstrated. The article also discusses the positive impact of teaching morphology through communicative grammar on the development of students' oral communication skills.

Key words: foreign-language learners, second language, Tajik-medium schools, Uzbek language, morphology, communicative grammar.

Аннотация: В данной статье анализируется важность преподавания узбекской морфологии в школах, где обучение ведётся на таджикском языке, а также проблемы, возникающие в процессе изучения грамматики в двуязычной среде. Подчеркивается значимость коммуникативного грамматического подхода в преподавании морфологии и демонстрируются эффективные аспекты обучения грамматическим знаниям таджикоязычных учащихся на основе их речевых навыков. В статье также рассматривается положительное влияние преподавания морфологии посредством коммуникативной грамматики на развитие устной речи учащихся.

Ключевые слова: изучающие иностранный язык, второй язык, школы с таджикским языком обучения, узбекский язык, морфология, коммуникативная грамматика.

KIRISH

Til insoniyatning eng muhim aloqa vositasi bo'lib, har bir xalqning ma'naviy va madaniy boyligini, tarixi, qadriyatlarini hamda dunyoqarashini aks ettiruvchi asosiy omildir. Har bir millatning o'z tajribalarini kelajak avlodga yetkazishi va dunyoga tanilishi til vositasida amalga oshiriladi. Har qanday mamlakatning yuksalishi ham uning tiliga bog'liq.

Bugungi globallashuv jarayonida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Natijada har bir davlatda o'z ona tilini yanada kengroq yoyish, uni xalqaro miqyosga olib chiqish maqsadida xorijiy til sifatida o'rgatishga ehtiyoj tug'ilmoqda. Mamlakatimizda ham davlat tilimizning nufuzini oshirishga, uning jahon hamjamiyatidagi mavqeyini mustahkamlashga oid qator chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktyabrdagi "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ^[1], 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlangan bo'lib, unda davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish, xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, davlat tilining sofligini saqlash va uning lug'at boyligini muntazam oshirib borish, davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, bu borada sun'iy intellekt imkoniyatlaridan unumli foydalanish, mamlakatimizda



istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar vakillari hamda xorijdagi vatandoshlarimizning davlat tilini o'rganishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ta'lim qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari uchun o'zbek tilini o'rgatish bo'yicha darsliklarning yangi avlodini yaratish va boshqa ko'plab masalalar qamrab olinib, asosiy maqsad sifatida belgilangan. Bunda o'zbek tilining, avvalo, davlat tili sifatidagi mavqeyini mustahkamlash, uni yurtimizdagi o'zga millat farzandlariga, qolaversa, xorijliklarga xorijiy til sifatida samarali o'rgatish ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biri bo'lib turibdi.

Bilamizki, yurtimizda ta'lim 7 tilda olib boriladi va ta'lim o'zga tillarda olib boriladigan maktablarda O'zbek tili davlat tili fani sifatida o'qitiladi. Ta'lim o'zga tilda olib boriladigan, ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablar (tojik, qozoq, turkman, qirg'iz, qoraqalpoq) yoki milliy maktablar kabi tushunchalar bir ma'noni anglatib, ularning barchasida O'zbek tili o'quv fani hisoblanadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi", deb ko'rsatib o'tilgan. Shu asosda O'zbek tili o'quv fani sifatida qaralib, uning rivojlanishi va dunyo tajribalaridan foydalangan holda takomillashishi uchun sharoit yaratilishi belgilangan.

Shundan kelib chiqib, "O'zbek tili fani umumiy o'rta ta'limning ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarida ikkinchi til sifatida o'qitiladi. Ushbu fan ta'limi mazmunida asosiy diqqat-e'tibor nutqiy va lingvistik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu o'quvchilarning o'zbek tilidan egallaydigan lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmushda, ijtimoiy-madaniy hayotda, mutaxassislik sohaslarida og'zaki va yozma erkin muloqot yurita olishlarini ta'minlashga qaratilgan. Shu asosda o'zbek tili fanini o'qitishdan belgilangan asosiy maqsad ona tili o'zga bo'lgan o'quvchilarda o'zbek tiliga qiziqish va e'tibor hissini muntazam sur'atda o'stirib borishdan, ularga o'zbek tilining, urf-odatlarining, madaniyatining va boy adabiy merosning ahamiyatini hamda turli mavzulardagi o'rni tushuntirishdan iboratdir.

Bundan tashqari, milliy ma'naviyatni egallash, o'zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini va ularni o'zida aks ettirgan boy adabiy-badiiy merosi bilan yaqindan tanishish, uni o'qib o'rganish, milliy an'analar, bayramlar, urf-odatlar asosida shakllangan milliy madaniyat, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni o'rgatish ham ushbu maqsadning tarkibiy qismi hisoblanadi" [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umuman olganda, "ona tili", "xorijiy til", "ikkinchi til" kabi tushunchalar bir-biridan farq qiladi. "Xorijiy til" tushunchasi "ikkinchi til" tushunchasi bilan uzviy bog'liq. Xorijiy til yoki chet til maktabda o'rganiladigan va funksional jihatdan chegaralangan til bo'lib, asosan millatlararo muloqotda qo'llanadi. Xorijiy til unda so'zlashuvchi, uning egasi bo'lgan xalq ushbu davlatdan tashqarida yashaydigan, fuqarolarning aksariyati uchun ona tili bo'lmagan tildir. Ikkinchi til esa shaxsning ona tilidan keyin o'rganadigan tilidir. Keyinchalik hayot tarzi va sharoitga qarab bu til funksional jihatdan ikkinchi til sifatida qo'llanadi yoki birinchi o'ringa chiqadi. Ona tili va xorijiy (yoki o'zga) tilni o'rganish orasida katta tafovut mavjud. Ona tilini inson ongli ravishda o'rganishga intilmaydi, balki kichik yoshidan fikrlashni o'rganish jarayonida o'zlashtiradi. Ona tili bola uchun, avvalo, jamiyat tajribasini o'zlashtirish vositasi, keyinchalik esa o'z fikrini ifodalash vositasi hisoblanadi.

Taniqli psixolog L. Vigotskiy buni quyidan yuqoriga qarab, ya'ni ixtiyorsiz va ongsiz ravishda o'rganish deb talqin qilgan. Bu esa maktabdagi til ta'limidan farq qiladi, ya'ni til yuqoridan pastga, tizim va qoidalar majmui sifatida o'rganiladi. Bunda o'quvchiga tilni amaliy egallash uchun zarur bilimlar beriladi [3].

Demak, mamlakatimizdagi o'zga millat vakillari bo'lgan yurtdoshlarimizga o'zbek tili ikkinchi til sifatida o'qitilgan ekan, bu o'z navbatida til o'qitishdagi yangicha yondashuv va o'ziga xos metodikani talab etadi. Boisi yurtimizdagi o'zga millat vakillarining ona tili turli til oilalariga mansub bo'lishi bilan birga, ularning o'zbek tilini o'rganish jarayonida duch kelayotgan muammo va qiyinchiliklari ham turlichadir. Xususan, ta'lim qozoq, qirg'iz va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktab o'quvchilarida ko'pincha yozma nutq va imlo savodxonligi bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lsa, o'qitish tili rus tili bo'lgan maktablar o'quvchilarida o'zbek tilida nutq ko'nikmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, tojik va turkman maktablari o'quvchilarida esa talaffuz me'yorlarining buzilishi hamda grammatik bilimlarning sustligi kabi holatlar uchraydi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Yurtimizdagi ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarda davlat tilini o'rganish mobaynida so'zlarni buzib talaffuz etish, imloviy savodxonlikning sustligi, grammatik bilimlarning yetarli darajada emasligi kabi qator muammolarni uchratish mumkin. Ushbu muammolarning birlamchi sabablaridan biri ona tili ta'siri bo'lsa, bugungi kunda "O'zbek tili" darsliklarida berilayotgan grammatik bilimlarning izchil va to'liq berilmaganligi, darsliklar asosan o'zbek tilida nutq ko'nikmasini rivojlantirishga

qaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa tojik tilli o'quvchilar uchun anchagina oson bo'lib, ulardagi grammatika bilan bog'liq mavjud muammolarni bartaraf etishda, afsuski, samarali natijalar bermayapti. Boisi tojik tilli o'quvchilarda o'zbek tilida gapirish, o'z fikrini erkin bayon etish, umuman, nutq ko'nikmasi yaxshi rivojlangan, ammo grammatik jihatdan, ayniqsa, morfologiya bo'limida yechim talab etadigan ko'plab muammolar mavjud. Masalan, o'quvchilarning so'zlarni so'z turkumlariga to'g'ri ajrata olmasliklari, mustaqil va yordamchi so'z turkumlarini bir-biridan farqlay olmasliklari natijasida yozma va og'zaki nutqda so'zlarni noto'g'ri qo'llashlari, so'z ma'nolarini tushunmasliklari, kelishik qo'shimchalari, egalik qo'shimchalari yoki fe'l zamonlarini aralash tarzda qo'llashlari kabi holatlar yuzaga keladi. Ya'ni tojik tilli o'quvchilar o'zbek tilida yozma hamda og'zaki ravishda gap tuzish jarayonida quyidagicha xatoliklarga yo'l qo'yishlari mumkin:

Men kitob o'qaman.

Gulning rangi.

Bahor faslida havo iliq bo'ladi.

Do'stimning kiyimi yashil rangda.

Ushbu misollar ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinf o'quvchilari tomonidan tuzilgan gaplar bo'lib, ko'rishimiz mumkinki, tojik tilli o'quvchilarda morfologiya bilan bog'liq kamchiliklar talaygina. Bu muammolarni bartaraf etish uchun yanada chuqurroq yondashish, zamonaviy til o'qitish texnologiyalari va interaktiv metodlardan foydalanish lozim. "Morfologiyani o'rganish o'quvchilarning mustaqil va ijodiy tafakkur doirasini kengaytiradi, so'zning turli shakllarini o'rganish va yangi so'z hosil qilish, ularni o'zaro qiyoslash va tahlil qilish, tanlab olingan so'zni gap tarkibida hamda bog'lanishli nutqda o'rinli qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi"^[4]. Shu bois morfologiya tilni o'qitish va o'rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan biri hisoblanadi. Morfologiyani o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda o'zbek tilining grammatik qurilishi haqida bilim hosil qilish hamda nutqda so'z turkumlaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Morfologiya bo'limiga oid bilimlarni puxta o'zlashtirgan o'quvchi tilning barcha imkoniyatlaridan erkin foydalana oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yurtimizdagi o'zga tilli maktablarning o'zbek tili darslarida morfologiya bo'limiga oid bilimlar boshlang'ich sinflardan boshlab o'rgatib boriladi. Biroq mavjud darsliklarda ushbu bo'limga oid ma'lumotlar, mashq va topshiriqlarning yetarli darajada berilmaganligi, shuningdek, maktab o'qituvchilarining bu boradagi metodik ta'minoti yetarli darajada shakllantirilmaganligi o'quvchilarda morfologiya bo'limining puxta o'zlashtirilmasligiga olib kelmoqda. Bugungi kunda til o'qitishda xorijiy tajribalardan foydalanish va ulardagi metodikalarni amaliyotga tatbiq etish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xorijiy tajribalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, bugungi kunda til o'qitishda grammatikani faqat nazariy jihatdan o'rgatish hamda uni test, savol-javob kabi usullar orqali mustahkamlash metodikalaridan asta-sekin voz kechilib, aksincha, tilni hayotiy vaziyatlar asosida o'rganish, undan turli vaziyatlarda erkin foydalana olish va tilni muloqot jarayonida egallash birlamchi o'ringa chiqib bormoqda. Ayniqsa, ikki tillilik (bilingvizm) sharoitida o'quvchilarga ikkinchi tilni o'rgatishda kommunikativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili morfologiyasini o'qitishda kommunikativ-grammatik yondashuvga asoslanish o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Sababi, tojik tilli o'quvchilar o'zbek tilida ma'lum darajada kundalik muloqot qila olsalar-da, grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzishda, ayniqsa, morfologik shakllarni (zamon, kelishik, shaxs-son, egalik) qo'llashda xatolarga yo'l qo'yish holatlari uchrab turadi. Kommunikativ grammatika – tilni muloqot jarayonida, real hayotiy vaziyatlar asosida o'rgatishga qaratilgan yondashuvdir. Bu usulda grammatika alohida qoidalar majmui sifatida emas, balki nutqiy faoliyatning tarkibiy qismi sifatida o'zlashtiriladi. O'quvchi grammatik bilimlarni kundalik muloqot mavzulari doirasida qo'llash orqali egallaydi. Shu sababli morfologiyani faqat qoidalar asosida emas, balki amaliy muloqot orqali o'rgatish morfologik shakllarni to'g'ri va tizimli qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Mazkur yo'nalishda tadqiqotlar olib borgan Geoffrey Leech va Jan Svartviklarning "Ingliz tilining kommunikativ grammatikasi" nomli asarida quyidagi fikrlar bayon etilgan: "Ingliz tilining kommunikativ grammatikasi grammatika yozishdagi yangi yo'nalish hisoblanadi, chunki u strukturaviy emas, balki kommunikativ yondashuvni qo'llaydi. Ingliz tilining kommunikativ grammatikasi grammatikaning yangi turidir. Uni yozishda biz shunday fikrga tayandikki, xorijiy talaba uchun grammatikani o'rganish, eng avvalo, 'Men grammatikadan muloqot qilish uchun qanday foydalanaman?' degan savoldan boshlanishi kerak. Shu sababli kitobning asosiy qismi grammatik tuzilishga emas, balki grammatikaning qo'llanilishiga bag'ishlangan"^[5].

Haqiqatan ham, til ta'limida grammatik qoidalarni yodlatish va ularni qayta so'rash grammatik bilimlarning faqat eslab qolinishini ta'minlaydi, xolos. Aksincha, ularni nutqiy vaziyatlarda qo'llash orqali o'rganish o'quvchilarning mavjud kommunikativ ko'nikmalarini grammatik jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi. Ta'lim tojik



tilida olib boriladigan maktablarda ham o'zbek tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning o'zbek tilidagi nutqiy ko'nikmalaridan samarali foydalangan holda ularda grammatik bilimlarni rivojlantirish eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili morfologiyasini kommunikativ grammatika yondashuvi asosida o'qitish o'quvchilarning tilni nafaqat nazariy jihatdan bilishini, balki uni amaliy muloqot jarayonida erkin qo'llay olishini ham ta'minlaydi. An'anaviy grammatik yondashuvda asosiy e'tibor ko'proq qoidalarni yodlashga qaratilgan bo'lsa, kommunikativ metod orqali grammatik bilimlar real nutqiy vaziyatlar asosida o'rgatiladi. Bu esa o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, so'z boyligi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Morfologik mavzularni dialoglar, rolli o'yinlar va zamonaviy interaktiv metodlar orqali o'qitish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Ayniqsa, tojik tilli o'quvchilar uchun o'zbek tili morfologiyasini kommunikatsiya vositasida o'rganish imkoniyatini yaratish tilni o'zlashtirish samaradorligini kuchaytiradi.

Shuningdek, kommunikativ grammatika yondashuvi asosidagi ta'lim faqat grammatik bilimlarni o'qitishda samarali bo'lib qolmasdan, balki o'quvchilarning tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv orqali o'quvchilar o'zbek tilida kundalik hayotiy vaziyatlar haqida muloqot qilish bilan birga, grammatik shakllarni ham samarali ravishda o'rganib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktyabrdagi "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-308-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7776360>
2. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. O'zbek tili. Toshkent, 2021-yil.
3. Asilova G., Qarayeva B. O'zbek tilini o'qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari. Language and Culture. Applied Philology. Toshkent, 2023.
4. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Yozuvchilar uyushmasi, 2006.
5. Leech G., Svartvik J. A Communicative Grammar of English. Third Edition.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.